

OMMAVIY OFERTA

(Bankning mobil ilovasi va veb-ilovasi orqali yuridik va jismoniy shaxslar bilan pul mablag'larini ishonchli boshqarish shartnomasini tuzish uchun)

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu hujjat "Open bank" AJning (bundan keyin "Bank" yoki "Ishonchli boshqaruvchi" deb yuritiladi) Yuridik va jismoniy shaxslar bilan Bankning mobil ilovasi yoki veb-ilovasi orqali pul mablag'larini ishonchli boshqarish shartnomasini (bundan keyin "Shartnoma" deb yuritiladi) tuzish bo'yicha ommaviy ofertasi – taklifi hisoblanadi.

1.2. Ushbu hujjat Bank mijozlari bo'lgan Yuridik va jismoniy shaxslarga (bundan keyin "Mijoz" yoki "Boshqaruv muassisi" deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367, 369 va 370-moddalariga muvofiq Shartnoma tuzish uchun yo'naltirilgan ommaviy taklifdir.

1.3. Shartnoma ushbu Shartnomada nazarda tutilgan Mijoz tomonidan qabul qilingan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va yuridik kuchga ega bo'ladi. Bu esa Shartnomaning barcha shartlarini hech qanday istisno va cheklovlarsiz so'zsiz qabul qilish (akseptlash)ni anglatadi.

2. ATAMALAR VA TUSHUNCHALAR

2.1. Ushbu Shartnomada quyidagi atamalar va tushunchalar qo'llaniladi:

Ishonchli boshqarish – Boshqaruv muassisi Ishonchli boshqaruvchiga ma'lum muddatga pul mablag'larini ishonchli boshqarishga topshiradigan va Ishonchli boshqaruvchi ushbu pul mablag'larini Boshqaruv muassisining manfaatlarini ko'zlab boshqarishni, bunday mablag'larni investitsiya qilish bo'yicha o'z bilimi, ko'nikmasi va sa'y-harakatlarini taqdim etgan holda amalga oshirish majburiyatini oladigan shartnomaviy munosabatlardir.

Ishonchli boshqarish shartlari – Boshqaruv muassisi ishonchli boshqarish shartnomasini tuzishdan oldin tanishib chiqishi lozim bo'lgan, ishonchli boshqarish mahsulotining asosiy shartlarini o'z ichiga olgan hujjatdir.

Ishonchli boshqaruvchining mukofoti – Ishonchli boshqaruvchi ushbu shartnomada nazarda tutilgan mukofotni olish, shuningdek, pul mablag'larini ishonchli boshqarishda qilgan zarur xarajatlarini boshqaruvga topshirilgan pul mablag'lari yoki ulardan foydalanishdan olingan daromadlar hisobidan qoplash huquqiga ega.

Ishonchli boshqarish daromadi – Ishonchli boshqaruvchi va Boshqaruv muassisi o'rtasida taqsimlanadigan, topshirilgan pul mablag'larini boshqarishdan amalda olingan daromadni (mavjud bo'lgan taqdirda) anglatadi. Daromad (mavjud bo'lgan taqdirda) Tomonlar o'rtasida kelishilgan ulushga muvofiq taqsimlanadi. Bunda pul mablag'larini ishonchli boshqarish munosabati bilan yuzaga kelgan majburiyatlar bo'yicha qarzlari shu pul mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Ishonchli boshqaruvchi (Bank) – «Open bank» AJ bo'lib, u Boshqaruv muassisidan pul mablag'larini qabul qiladi va ularni Ishonchli boshqaruv faoliyati natijasida olinishi mumkin bo'lgan

daromadning ma'lum bir ulushi evaziga boshqaradi. Bunda pul mablag'larining ishonchli boshqarishga o'tkazilishi Iшонchli boshqaruvchiga mulk huquqining o'tishiga olib kelmaydi.

Boshqaruv muassisi (Manfaatdor shaxs) – Bank mijozi bo'lgan va ushbu Shartnomada ko'rsatilgan shartlar asosida Iшонchli boshqaruvchiga pul mablag'larini ishonchli boshqarishga topshirgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Iшонchli boshqarish hisobvarag'i – Iшонchli boshqarish faoliyati bo'yicha hisob-kitoblar uchun mo'ljallangan alohida bank hisobvarag'i. Iшонchli boshqarishga topshirilgan pul mablag'lari Boshqaruv muassisining boshqa mol-mulkidan, shuningdek Iшонchli boshqaruvchining mol-mulkidan ajratiladi. Bu mol-mulk Iшонchli boshqaruvchining alohida balansida aks ettiriladi va u bo'yicha mustaqil hisob yuritiladi. Boshqaruv muassisining qarzlari bo'yicha undiruvni u ishonchli boshqarishga topshirgan pul mablag'lariga qaratish taqiqlanadi, faqat ushbu shaxs bankrot deb topilgan hollar bundan mustasno. Boshqaruv muassisi bankrot deb e'lon qilinganda, ushbu pul mablag'larini ishonchli boshqarish to'xtatiladi va ular tugatish massasiga kiritiladi.

Iшонchli boshqarishning pul mablag'lari – Boshqaruv muassisi tomonidan Iшонchli boshqaruvchiga berilgan pul mablag'lari bo'lib, ular Boshqaruv muassisining manfaatlarini ko'zlab boshqariladi va daromad olish maqsadida muayyan loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Iшонchli boshqarish jamg'armasi – Iшонchli boshqaruvchiga pul mablag'larini topshirgan barcha Boshqaruv muassislarining Iшонchli boshqarish pul mablag'lari yig'indisi. Bunda ushbu fondga har bir Boshqaruv muassisining mablag'lari uchun alohida hisobvaraq ochiladi.

Umumiy jamg'arma – Iшонchli boshqarish jamg'armalari, vakillik boshqaruvi jamg'armalari va Bank aksiyadorlari jamg'armalarini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan hamda Bank Iшонchli boshqarish va vakillik shartnomalari asosida (Bankka nisbatan qo'llaniladigan darajada) investitsiya qilish vakolatiga ega bo'lgan jamg'arma.

Iшонchli boshqarish muddati – Boshqaruv muassisi tomonidan Iшонchli boshqarish hisobvarag'ini ochishda ko'rsatilgan va Iшонchli boshqarish shartnomasi tuziladigan muddat.

Tarixiy daromadlilik – Bank tomonidan o'tgan hisobot davrlari uchun e'lon qilingan haqiqiy daromadlilik bo'lib, bu davrlar uchun tanlangan Iшонchli boshqarish muddatlariga muvofiq Boshqaruv ta'sischilariga tegishli bo'lgan Iшонchli boshqarish daromatlari ulushi hisoblanib to'langan. Tarixiy daromadlilik haqidagi ma'lumotlar Bank tomonidan o'zining rasmiy veb-saytida, ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarida hamda mobil va veb-ilovalarida e'lon qilinadi.

Daromadni hisoblash davri – 1 (bir) kalendar oyiga teng bo'lgan davr.

Daromadni to'lash sanasi – tegishli daromadni hisoblash davri tugaganidan so'ng 10 (o'n) kundan kechiktirmay, Bank Boshqaruv muassisiga Iшонchli boshqarish hisobvarag'i bo'yicha Iшонchli boshqarish daromadini to'laydigan sanani anglatadi.

Qo'shimcha badal – Boshqaruv muassisi tomonidan Iшонchli boshqaruv hisobraqami ochilganda dastlabki badal summasi kiritilganidan so'ng qo'shimcha ravishda kiritilgan pul mablag'i.

Muddatidan oldin yopish – Iшонchli boshqarish hisobvarag'ini belgilangan Iшонchli boshqarish muddati tugashidan oldin yopish.

Daromadni kapitallashtirish – Hisoblangan daromadni Iшонchli boshqarish hisobvarag'idagi asosiy summaga qo'shish.

Pul mablag'lari va (yoki) boshqa mol-mulkni noqonuniy jalb qilish faoliyati – O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 188-1-moddasiga ko'ra, mulkiy manfaat berish bo'yicha zimmaga majburiyat olish yo'li bilan jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag'larini va (yoki) boshqa mol-

mulkini jalb etishga doir noqonuniy faoliyatni amalga oshirish va bunda ilgari olingan majburiyatni jismoniy va yuridik shaxslarning yangi jalb etilgan pul mablag‘lari va (yoki) boshqa mol-mulki hisobidan bajarish, shuningdek bunday faoliyatga rahbarlik qilish hamda shunday faoliyat ko‘rsatilishini ta‘minlash, xuddi shuningdek mazkur faoliyatda ishtirok etishga jalb qilish maqsadida ushbu faoliyatni reklama qilish, shu jumladan ommaviy axborot vositalaridan yoxud telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda reklama qilish.

3. SHARTNOMA PREDMETI

3.1. Ushbu Shartnomaga ko‘ra, Mijoz – Boshqaruv muassisi Bankka – Ishonchli boshqaruvchiga muayyan muddatga pul mablag‘larini ishonchli boshqarishga topshiradi, Bank – Ishonchli boshqaruvchi esa ushbu pul mablag‘larini Boshqaruv muassisi – Manfaatdor shaxs foydasini ko‘zlab boshqarishni o‘z zimmasiga oladi.

3.2. Ishonchli boshqarishga berilgan pul mablag‘lari bilan bog‘liq bitimlarni Ishonchli boshqaruvchi o‘z nomidan amalga oshiradi, bunda u Ishonchli boshqaruvchi sifatida harakat qilayotganini ko‘rsatadi. Agar yozma rasmiylashtirishni talab qilmaydigan harakatlarni amalga oshirishda boshqa taraf bu harakatlar Ishonchli boshqaruvchi tomonidan shu sifatda bajarilganligi haqida xabardor qilingan bo‘lsa, yozma hujjatlarda esa Ishonchli boshqaruvchining ismi yoki nomidan so‘ng tegishli belgi qo‘yilgan bo‘lsa, ushbu shart bajarilgan hisoblanadi. Ishonchli boshqaruvchining bunday sifatda harakat qilishi to‘g‘risida ko‘rsatma bo‘lmagan taqdirda, u uchinchi shaxslar oldida shaxsan majburiyat oladi va ular oldida faqat o‘ziga tegishli mol-mulk bilan javob beradi.

3.3. Pul mablag‘larining ishonchli boshqarishga topshirilishi unga nisbatan mulk huquqining Ishonchli boshqaruvchiga o‘tishiga olib kelmaydi.

3.4. Ishonchli boshqarishga berilgan pul mablag‘lari Boshqaruv muassisining boshqa mol-mulkidan, shuningdek Ishonchli boshqaruvchining mol-mulkidan ajratiladi. Bu pul mablag‘lari Ishonchli boshqaruvchida alohida balansda aks ettiriladi va ular bo‘yicha mustaqil hisob yuritiladi. Ishonchli boshqaruv bilan bog‘liq faoliyat bo‘yicha hisob-kitoblar uchun alohida bank hisobvarag‘i ochiladi.

Boshqaruv muassisining qarzlari bo‘yicha undiruvni u Ishonchli boshqarishga topshirgan pul mablag‘lariga qaratishga yo‘l qo‘yilmaydi, faqat ushbu shaxs bankrot deb e‘tirof etilgan hollar bundan mustasno. Boshqaruv muassisi bankrot deb topilganda, mazkur pul mablag‘larini ishonchli boshqarish to‘xtatiladi va ular tugatish massasiga kiritiladi.

3.5. Ishonchli boshqaruvchi Boshqaruv muassisidan Arizada ko‘rsatilgan valyuta va muddatda pul mablag‘larini qabul qiladi. Ishonchli boshqaruvchi Boshqaruv muassisining manfaatlarini ko‘zlab, Ishonchli boshqarishdagi pul mablag‘larini boshqarishni amalga oshirish, ularni Mijozga qaytarish va Boshqaruv muassisiga daromad to‘lash uchun barcha oqilona choralarni ko‘rish majburiyatini oladi. Ishonchli boshqaruvchi pul mablag‘larini Boshqaruv muassisining manfaatlarini ko‘zlab boshqarish majburiyatini oladi, Boshqaruv muassisi esa o‘z navbatida bu borada Ishonchli boshqaruvchining harakatlariga hech qanday cheklov qo‘ymaslik majburiyatini zimmasiga oladi.

3.6. Shubhalarni oldini olish maqsadida, Ishonchli boshqaruvchi Boshqaruv muassisiga Ishonchli boshqarishning pul mablag‘lari summasini nominal qiymatda qaytarishi yoki Ishonchli boshqarishning pul mablag‘lari bo‘yicha daromad to‘lashi majbur emas. Ishonchli boshqaruvchi Ishonchli boshqarish shartnomasi bo‘yicha o‘ziga ishonib topshirilgan pul mablag‘lariga nisbatan ishonchli shaxs hisoblanadi va quyidagi holatlardan tashqari javobgarlikka ega emas: (i) ishonchli boshqarish mol-mulkiga nisbatan vakolat doirasidan chetga chiqsa, (ii) ushbu mol-mulkni boshqarishda

e'tiborsizlik ko'rsatsa yoki (iii) shartnoma shartlarini buzsa. Agar u yuqorida sanab o'tilganlardan birortasini sodir etgan bo'lsa, ushbu pul mablag'lari uchun javobgar bo'lish majburiyatini oladi.

3.7. Ishonchli boshqarish shartlari ushbu Shartnomada, shuningdek, shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan Ishonchli boshqarish shartlari va Arizada bayon etilgan. Taqdim etilgan har bir ariza, shuningdek, Boshqaruv muassisi tomonidan tasdiqlangan Ishonchli boshqarish shartlari ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

3.8. Shartnomani tuzish uchun Mijoz ish kuni davomida Bankka Masofaviy bank xizmati (MBX) tizimi orqali Ishonchli boshqarish hisobvarag'ini ochish uchun Bankning belgilangan shakli bo'yicha to'ldirilgan, Ishonchli boshqarish shartlarini o'z ichiga olgan arizani taqdim etadi. Shartnoma Bank tomonidan Mijozning arizasi qabul qilingandan so'ng tuzilgan hisoblanadi. Bank tomonidan Ishonchli boshqarish hisobvarag'ini ochish va ushbu hisobvaraqa to'liq summani o'tkazish Bankning arizani qabul qilganligi hisoblanadi.

3.9. Mijoz tomonidan to'ldirilgan va tasdiqlangan (MBX tizimida qabul qilingan) Ariza Ishonchli boshqarish shartnomasi tuzilgan taqdirda shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi va Mijozning ushbu Shartnomada hamda Ishonchli boshqarish shartlarida bayon etilgan shartnomaning umumiy qoidalariga to'liq va so'zsiz roziligini tasdiqlaydi.

3.10. Ishonchli boshqarish hisobvarag'iga qo'shimcha mablag' kiritish yoki Mijozning Ishonchli boshqarish hisobvarag'idan mablag'larni muddatidan oldin yechib olish Bank tomonidan belgilangan shakldagi Ariza asosida, shuningdek Mijozning pul mablag'larini Ishonchli boshqarish hisobvarag'iga o'tkazish yoki Ishonchli boshqarish hisobvarag'idan mablag'larni hisobdan chiqarish to'g'risidagi ko'rsatmasi bilan amalga oshiriladi.

3.11. Arizalarning elektron nusxalari Mijozning MBX tizimidagi shaxsiy kabinetida saqlanadi.

3.12. Ishonchli boshqarish hisobvarag'ini to'ldirish Boshqaruv muassisi tomonidan Ishonchli boshqarish hisobvarag'i valyutasida cheklanmagan miqdorda qo'shimcha pul mablag'larini kiritish orqali amalga oshiriladi. Bunda daromad Mijozning 22642-raqamli Ishonchli boshqarish hisobvarag'idagi haqiqiy qoldiq summasiga pul mablag'lari Bankdagi Ishonchli boshqarish hisobvarag'iga o'tkazilgan kundan keyingi kundan boshlab hisoblanadi.

3.13. Ishonchli boshqarish muddati tugagach, Boshqaruv muassisi Ishonchli boshqarish hisobvarag'i summasini qaytarishni talab qilmagan taqdirda, Ishonchli boshqarish pul mablag'lari Mijozning 22642-raqamli "Ishonchli boshqarishga qabul qilingan moliyaviy aktivlar bo'yicha majburiyatlar" hisobvarag'idan Boshqaruv muassisining talab qilib olinadigan hisobvarag'iga o'tkaziladi.

3.14. Mijozga Ishonchli boshqarish shartnomasi bo'yicha ochilgan 22642-raqamli hisobvaraqa Ishonchli boshqarish muddati tugagach yoki Ishonchli boshqarish hisobvarag'idan mablag'lar muddatidan oldin yechib olinganda yopiladi.

3.15. Ishonchli boshqarish shartnomasi quyidagi hollarda bekor qilinadi:

3.15.1. Ishonchli boshqarish shartnomasi muddati tugashi munosabati bilan Tomonlardan birining Shartnomani bekor qilish to'g'risidagi arizasi bilan;

3.15.2. Boshqaruv muassisi bankrot deb tan olinganda. Bunda ushbu pul mablag'larini ishonchli boshqarish tugatiladi va ular tugatish massasiga kiritiladi;

3.15.3. Boshqaruv muassisi Shartnomaning amal qilish muddati tugashidan oldin Ishonchli boshqarish hisobvarag'idan summaning bir qismini talab qilgan holda. Bunday vaziyatda foyda to'lovi Ishonchli boshqarish hisobvarag'idan mablag'larni muddatidan oldin yechib olish tartibi va shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

3.15.4. Boshqaruv muassisi bo'lgan fuqaroning vafot etishi yoki yuridik shaxs – Boshqaruv muassisining tugatilishi;

3.15.5. Ishonchli boshqaruvchining tugatilishi yoki to'lovga layoqatsiz deb topilishi;

3.15.6. Boshqaruv muassisining Shartnoma bo'yicha manfaatlardan voz kechishi;

3.15.7. Ishonchli boshqaruvchi yoki Boshqaruv muassisining mol-mulkni ishonchli boshqarishni shaxsan amalga oshira olmasligi sababli boshqaruvni amalga oshirishdan voz kechishi;

3.15.8. Boshqaruv muassisining Shartnoma bo'yicha manfaatlardan voz kechishdan boshqa sabablarga ko'ra ushbu Shartnomani bajarishdan bosh tortishi, bunda Ishonchli boshqaruvchiga Shartnomada belgilangan haq to'lanishi sharti bilan;

3.15.9. Ishonchli boshqaruvchi o'z majburiyatlarini tegishli darajada bajarmagan taqdirda, ushbu Shartnomaning sud qarori bilan bekor qilinishi;

3.15.10. Qonun hujjatlarida va ushbu Shartnomada nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra.

Ishonchli boshqarish shartnomasi bekor qilinganda, Ishonchli boshqarishdagi pul mablag'lari Boshqaruv muassisiga qaytariladi.

Ushbu Shartnoma Tomonlardan birining tashabbusi bilan bekor qilinishi kerak bo'lsa, boshqa Tomon kamida 10 (o'n) kun oldin xabardor qilinishi shart.

Ishonchli boshqaruv tugatilgan taqdirda pul mablag'larini oluvchi shaxs Boshqaruv muassisi hisoblanadi.

3.16. Bank Boshqaruv muassisining talabiga ko'ra, u Bankning MBX tizimi orqali Autentifikatsiya ma'lumotlaridan foydalanib murojaat qilganda, Boshqaruv muassisiga Ishonchli boshqarish hisobvarag'iga mablag'lar kiritilganligini tasdiqlovchi ko'chirma taqdim etadi.

3.17. Bank tomonidan ushbu Shartnomaga muvofiq ochilgan Ishonchli boshqarish hisobvarag'iga pul mablag'lari xato o'tkazilgan taqdirda, shuningdek pul mablag'lari noto'g'ri o'tkazilganda, Boshqaruv muassisi Bankka Boshqaruv muassisining qo'shimcha topshiriqlarisiz Ishonchli boshqarish hisobvarag'idan xato o'tkazilgan summalar miqdorida pul mablag'larini yechib olish huquqini beradi va o'z roziligini (oldindan berilgan akseptni) bildiradi. Bunday hollarda Ishonchli boshqarish hisobvarag'idan pul mablag'larini qisman yechib olishga ruxsat beriladi.

3.18. Ishonchli boshqaruv bo'yicha daromad Ishonchli boshqaruvchi tomonidan har oyda, har bir kalendar oyining oxirida hisoblab chiqiladi va daromadni to'lash sanasida Boshqaruv muassisiga to'lanadi. Daromadni taqsimlash Ishonchli boshqarishdagi mablag'lar summasining qat'iy belgilangan summasi yoki foizi sifatida emas, balki umumiy daromaddan ulush asosida amalga oshiriladi.

3.19. Olingan daromadni hisoblash va taqsimlash uchun Ishonchli boshqaruvchi kapitalning barqarorligini va shartnomaviy munosabatlarni ta'minlash, daromadni (agar mavjud bo'lsa) amalga oshirish maqsadida daromad hisoblanadigan va taqsimlanadigan davr uchun Umumiy jamg'arma bo'yicha hisobot (boshqa zarur moliyaviy hisobotlar bilan birga) tuzadi. Yig'imlar va xarajatlar chegirib tashlangandan so'ng Umumiy jamg'armada olingan daromad ("Umumiy jamg'arma daromadi") (Ishonchli boshqaruvchi tomonidan Umumiy jamg'arma va aksiyadorlar o'rtasida yig'imlar va xarajatlarni taqsimlashga nisbatan qo'llanilganidek) quyidagicha taqsimlanadi:

3.19.1. Umumiy jamg'armaning daromadi Ishonchli boshqarish jamg'armasi, vakillik boshqaruv jamg'armasi va Bank aksiyadorlarining jamg'armalari, joriy hisobvaraqlardagi qoldiqlar va joriy hisobvaraqlarga tenglashtirilgan boshqa hisobvaraqlardagi qoldiqlar, shuningdek Ishonchli boshqaruvchining investitsiya vakilligi shartnomalari asosida investitsiyalash vakolatiga ega bo'lgan mablag'lari o'rtasida Umumiy jamg'armadagi foiz ulushiga muvofiq mutanosib ravishda taqsimlanadi.

3.19.2. Ishonchli boshqaruvchi Ishonchli boshqarish shartlarida ko'rsatilgan va Bankning veb-saytida, ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarida hamda mobil va veb-ilovasida e'lon qilingan ulushga mutanosib ravishda mablag'larni moliyalashtirishga yo'naltirishdan olingan daromaddan ulush olish huquqiga ega. Bu huquq, shuningdek, o'zining joriy hisobvaraqlarida, joriy hisobvaraqlarga tenglashtirilgan hisobvaraqlardagi pul mablag'lari, hamda vakillik shartnomalari asosida Umumiy jamg'armaga mutanosib ravishda investitsiya qilish vakolatiga ega bo'lgan fondlardan olingan daromadlarga ham taalluqlidir. Ishonchli boshqaruvchi bozor kon'yunkturasidan kelib chiqib, bir tomonlama Ishonchli boshqarish bo'yicha daromad ulushini o'zgartirishga haqli va bunday o'zgarish Mijozga Bank tomonidan tasdiqlanganidan keyin ma'lumotlar kutilayotgan o'zgarish sanasidan 10 (o'n) ish kuni oldin veb-saytda va/yoki ijtimoiy tarmoqlardagi Bank kanallarida va/yoki Bankning Mobil va Veb-ilovasida amaldagi qonunchilikka muvofiq ravishda joylashtirish yo'li bilan yetkaziladi. Bunday o'zgarish daromadni hisoblash o'zgarishlar kiritilganidan keyingi davrining boshlanishiga nisbatan haqiqiy deb hisoblanadi. Agar Ishonchli boshqaruvchi o'zgarishlar to'g'risida Mijozni xabardor qilgan paytdan keyin undan e'tirozlar olsa, Mijoz mablag'larni Ishonchli boshqarish hisobvarag'idan muddatidan oldin olishga haqli. Bunda Ishonchli boshqaruvchi o'z xohishiga ko'ra umumiy tomondan kamroq daromad ulushini kamaytirishga haqli. Bunday o'zgartirish to'g'risidagi ma'lumotlar veb-saytda va/yoki ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarda va/yoki Bankning Mobil va Veb-ilovasida belgilangan tartibda e'lon qilish yo'li bilan Mijozga yetkaziladi va Ishonchli boshqaruvchi tomonidan ko'rsatilgan sanadan kuchga kiradi.

3.19.3. Ishonchli boshqaruvchining daromad ulushi chegirib tashlangandan keyin ishonchli boshqarish bo'yicha qolgan daromad Mijozlar o'rtasida Ishonchli boshqaruvning Umumiy jamg'armasidagi har birining ulushiga mutanosib ravishda har bir shartlar toifasi va investitsiya summasiga ko'ra yoki Ishonchli boshqaruvchi tomonidan belgilangan boshqa tartibda taqsimlanadi.

3.19.4. Agar Ishonchli boshqaruvchi barcha yoki ba'zi Ishonchli boshqarish hisobvaraqlari bo'yicha olingan daromaddagi ulushdan katta summani to'lashga qaror qilsa, bu Ishonchli boshqaruvchini buni kelajakda har qanday davriylik bilan amalga oshirishga majbur qilmaydi va har doim Ishonchli boshqaruvchining mutlaq huquqi bo'lib qoladi va uning ixtiyoriga ko'ra amalga oshiriladi. Shuningdek, Bank bozor xatarlarini boshqarish va/yoki o'z xohishiga ko'ra daromadni tenglashtirishni ta'minlash uchun xatarlarni boshqarish siyosatidan kelib chiqib maxsus zaxiralar yaratish huquqiga ega.

3.20. Mijoz Shartnomadagi qoidalar bo'yicha Ishonchli boshqaruvchi tomonidan kiritilgan kapitalning qisman yoki to'liq qaytarishning yoki kafolatlangan daromad bo'lmasligini qabul qiladi. Mijoz Ishonchli boshqarish jamg'armasi investitsiyalari bo'yicha zarar yuzaga kelgan taqdirda joylashtirgan kapitali summasining bir qismini yoki butun summasini yo'qotish xatari mavjudligini tushunadi.

3.21. Daromadni hisoblash davrida Ishonchli boshqarish hisobvarag'i bo'yicha qilingan har qanday zarar faqat Boshqaruv muassisi mablag'lari hisobidan qoplanadi. Agar Ishonchli boshqaruvchi ham Ishonchli boshqarish jamg'armasiga (Ishonchli boshqaruvchining o'z mablag'lari yoki boshqa mablag'lari hisobidan) ma'lum miqdorni investitsiya qilgan bo'lsa, zarar Boshqaruv muassisi investitsiyalari va Ishonchli boshqaruvchining Ishonchli boshqarish jamg'armasiga investitsiyalari summalariga mutanosib ravishda Mijoz va Ishonchli boshqaruvchi o'rtasida taqsimlanadi. Bunda Ishonchli boshqaruvchi ushbu Shartnomaga muvofiq ishonchli boshqaruvchi sifatida o'z majburiyatlarini bajarmasligi yoki beparvoligi natijasida yuzaga keladigan zararlar uchun javobgar bo'ladi.

3.22. Daromadni hisoblash maqsadida Ishonchli boshqaruvchi Mijozning Ishonchli boshqarish hisobvarag'ini debetlash sanasi va Investitsiyalar summasini Mijozning talab qilib olingunga qadar hisob

raqamiga qaytarish sanasi bir kun deb qaraladi. Ishonchli boshqaruv daromadi Bank tomonidan yiliga 365 kun hisobidan va mablag'larning investitsiyaga jalb qilingan kunlarining amaldagi miqdori asosida hisoblanadi.

3.23. Boshqaruv muassisi Ishonchli boshqarish hisobvarag'i qoldiqlari va kirim-chiqim operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni Ishonchli boshqaruvchining mobil yoki veb-ilovasidan foydalanib yoki Ishonchli boshqaruvchining Aloqa markaziga (Call Centre) qo'ng'iroq qilib olishi mumkin.

3.24. Agar Shartnoma va Ishonchli boshqarish shartlarida boshqacha tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, Boshqaruv muassisi tomonidan Ishonchli boshqarish hisobvarag'idan pul mablag'larini muddatidan oldin faqat to'liq miqdorda (qisman emas) yechib olishga ruxsat beriladi.

3.25. Ishonchli boshqarish hisobvarag'i bo'yicha Boshqaruv muassisiga daromadni to'lash, daromad to'lash sanalari orasidagi davrda, ya'ni hali daromad olinmagan qism uchun, keyingi e'lon qilingan daromad ulushini hisobga olgan holda amalga oshiriladi va keyingi Daromad to'lash sanasida to'lanadi.

3.26. Boshqaruv muassisi Ishonchli boshqarish hisobvarag'idan pul mablag'larini muddatidan oldin yechib olgan taqdirda, Ishonchli boshqaruvchi ortiqcha to'langan daromadni qaytarib olish huquqiga ega.

4. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Ishonchli boshqaruvchi quyidagi huquqlarga ega:

4.1.1. Ishonchli boshqarish shartnomasi asosida Boshqaruv muassisi manfaatlarini ko'zlab pul mablag'lariga nisbatan har qanday yuridik va amaliy harakatlarni amalga oshirish;

4.1.2. ishonchli boshqarishga topshirilgan pul mablag'lari bilan o'z nomidan bitimlar tuzish, bunda o'zining Ishonchli boshqaruvchi sifatida harakat qilayotganini ko'rsatish. Agar yozma rasmiylashtirishni talab qilmaydigan harakatlar amalga oshirilganda, boshqa tarafga bu harakatlar Ishonchli boshqaruvchi tomonidan amalga oshirilganligi haqida ma'lum qilingan bo'lsa va yozma hujjatlarda Ishonchli boshqaruvchining ismi yoki nomidan so'ng tegishli belgi qo'yilgan bo'lsa, ushbu shart bajarilgan hisoblanadi. Ishonchli boshqaruvchining ushbu sifatdagi harakatlari ko'rsatilmagan hollarda, u uchinchi shaxslar oldida shaxsan majburiyat oladi va ularga faqat o'ziga tegishli mol-mulk bilan javob beradi;

4.1.3. ushbu Shartnomada belgilangan tartibda ishonchli boshqarishga olingan pul mablag'larini mustaqil ravishda yuritish va boshqarish;

4.1.4. ushbu Shartnomada ko'rsatilgan tartibda Ishonchli boshqarish hisobvarag'i foydasini mustaqil taqsimlash;

4.1.5. o'z ixtiyoriga ko'ra amaldagi qonunchilikka muvofiq Shartnoma shartlariga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish, bunda o'zgartirishlar kiritilishidan 10 (o'n) ish kuni oldin Ishonchli boshqaruvchining www.openbank.uz manzilida joylashgan veb-saytida ma'lumot joylashtirish va/yoki Boshqaruv muassisiga istalgan aloqa vositalari orqali xabarnoma yuborish yo'li bilan Boshqaruv muassisini oldindan xabardor qilish;

4.1.6. ushbu Shartnomaga muvofiq Boshqaruv muassisidan unga tegishli bo'lgan har qanday summani bir tomonlama tartibda hisobdan chiqarish. Mijoz ushbu orqali o'z roziligini beradi va Ishonchli boshqaruvchiga uning mablag'larini bir tomonlama tartibda hisobdan chiqarish vakolatini beradi.

4.1.7. Bank Ishonchli boshqarish hisobvarag'iga joylashtirilgan mablag'lardan qarz berish, sovg'alar qilish yoki xayriya maqsadlarida foydalanish huquqiga ega emas.

4.1.8. Ishonchli boshqaruvchining Risklarni boshqarish siyosatiga muvofiq, maxsus zaxiralarni mustaqil ravishda yaratish va ularga Ishonchli boshqaruv bo'yicha umumiy daromaddan va/yoki Boshqaruv muassisi daromadining bir qismidan mablag'lar ajratish.

4.1.9. Ishonchli boshqaruvdagi mol-mulkka bo'lgan huquqlarni himoya qilish uchun Ishonchli boshqaruvchi o'z huquqlarining har qanday buzilishini bartaraf etishni talab qilishga haqlidir (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 228-, 229-, 231-, 232-moddalari).

4.2. Ishonchli boshqaruvchi quyidagilarga majburdir:

4.2.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Shartnomada belgilangan doirada ishonchli boshqarishga topshirilgan mol-mulkka nisbatan Boshqaruv muassisining vakolatlarini amalga oshirish;

4.2.2. Mijozga MBX tizimi va/yoki Ishonchli boshqaruvchining boshqa axborot resurslari orqali Ishonchli boshqarish shartlarini taqdim etish;

4.2.3. Shartnoma qoidalarining to'liq bajarilishini ta'minlash;

4.2.4. Mijozdan 22642-"Ishonchli boshqarishga qabul qilingan moliyaviy aktivlar bo'yicha majburiyatlar" hisobvarag'iga Ishonchli boshqarish hisobvarag'ini ochish to'g'risidagi arizada va Mijozning MBX tizimi orqali bergan topshirig'ida ko'rsatilgan miqdordagi pul mablag'larini qabul qilish va kirim qilish;

4.2.5. Ishonchli boshqarishga qabul qilingan pul mablag'larini sifatli va vijdonan boshqarish;

4.2.6. Har oyda o'z faoliyati (daromadlar taqsimoti) to'g'risida hisobotlar taqdim etish;

4.2.7. Boshqaruv muassisini unga tegishli pul mablag'lari hisobdan chiqarilganligi to'g'risida xabardor qilish va tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish;

4.2.8. Shartnoma qoidalarini bajarish uchun yoki qonunchilik talablariga muvofiq zarur bo'lgan holatlardan tashqari, Boshqaruv muassisi haqidagi maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik;

4.2.9. Ishonchli boshqaruvchining mobil yoki veb-ilovasi orqali Ishonchli boshqarish hisobvarag'ini ochish va boshqarish imkoniyatini ta'minlash.

Mol-mulkni boshqarish bo'yicha amalga oshirilgan harakatlar natijasida Ishonchli boshqaruvchi tomonidan olingan huquqlar ushbu mol-mulk tarkibiga kiritiladi. Ishonchli boshqaruvchining bunday harakatlarini amalga oshirishi natijasida yuzaga kelgan majburiyatlar mazkur mol-mulk hisobidan bajariladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 188-1-moddasida nazarda tutilgan pul mablag'lari va (yoki) boshqa mol-mulkni noqonuniy jalb etish faoliyati bilan shug'ullanmaslik: jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag'lari va (yoki) boshqa mol-mulkini jalb etishga doir noqonuniy faoliyatni amalga oshirmaslik, bunda ilgari qabul qilingan majburiyatlar yangi jalb etilgan pul mablag'lari va (yoki) boshqa mol-mulk hisobidan ta'minlanib, mulkiy manfaat berish majburiyati olinadi. Shuningdek, bunday faoliyatga rahbarlik qilmaslik va uning faoliyat ko'rsatishini ta'minlamaslik, xuddi shuningdek mazkur faoliyatda ishtirok etishga jalb qilish maqsadida, shu jumladan ommaviy axborot vositalaridan, telekommunikatsiya tarmoqlaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda reklama qilmaslik.

4.3. Boshqaruv muassisi quyidagi huquqlarga ega:

4.3.1. Amaldagi qonunchilikka muvofiq Ishonchli boshqarish hisobvarag'ini tasarruf etish;

4.3.2. Ishonchli boshqarish shartlarida va mablag'larni ochish hamda Ishonchli boshqarish hisobvarag'iga joylashtirish to'g'risidagi arizada belgilangan tartibda Ishonchli boshqarish bo'yicha daromadning bir qismini olish;

4.3.3. belgilangan Ishonchli boshqarish muddati tugashidan oldin Ishonchli boshqarish hisobvarag'idan mablag'larni muddatidan oldin yechib olish;

4.3.4. Boshqaruv muassisi Ishonchli boshqaruvchi bilan birgalikda faoliyatda ishtirok etishga haqli emas.

4.4. Boshqaruv muassisi (Mijoz) majburiyatlari:

4.4.1. Shartnoma tuzilishidan oldin Ishonchli boshqaruvchiga boshqaruvga topshirilayotgan pul mablag'lariga uchinchi shaxslarning huquqlari yuklatilganligi haqida xabar berish. Ushbu shart buzilgan taqdirda, Ishonchli boshqaruvchi haqiqiy zararni qoplash va mutanosib haq to'lash sharti bilan Shartnomani haqiqiy emas deb topishni talab qilishga haqli. Agar ishonchli boshqarishga berilgan pul mablag'lari Shartnoma tuzilgandan so'ng uchinchi shaxslarning huquqlari bilan yuklangan bo'lsa va Ishonchli boshqaruvchi bu haqda o'n kun ichida xabardor qilinmagan bo'lsa, u o'ziga yetkazilgan haqiqiy zararni qoplash va mutanosib haq to'lash sharti bilan Ishonchli boshqarish shartnomasini bekor qilishni talab qilish huquqiga ega;

4.4.2. Ommaviy ofertani qabul qilish va unga rozilik berishdan oldin ushbu Ommaviy oferta shartlari va Ishonchli boshqarish shartlari bilan tanishib chiqish;

4.4.3. Ishonchli boshqarish hisobvarag'i shartnomasi tuzilgan kunda Bankka pul mablag'larini kiritish/o'tkazish shartlariga rioya qilgan holda, Ishonchli boshqarish hisobvarag'ini ochish va unga mablag'larni joylashtirish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan miqdordagi pul mablag'larini Ishonchli boshqarish hisobvarag'iga kiritish/o'tkazish;

4.4.4. Shartnoma qoidalarining to'liq bajarilishini ta'minlash;

4.4.5. Boshqaruv muassisining ma'lumotlari, shu jumladan davlat ro'yxatidan o'tkazish ma'lumotlari, rekvizitlari, hamda shaxsiy ma'lumotlari o'zgarganligi haqida Ishonchli boshqaruvchini 3 (uch) kun ichida xabardor qilish;

4.4.6. Ushbu Shartnoma qoidalariga muvofiq Ishonchli boshqaruvchini mukofot bilan ta'minlash.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Tomonlarning Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun Shartnoma qoidalarini buzgan Tomon O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

5.2. Boshqaruv muassisi (Mijoz) Ishonchli boshqaruvchiga (Bankka) taqdim etilayotgan ma'lumotlar va/yoki hujjatlarning aniqligi va to'liqligi uchun javobgardir.

5.3. Tomonlar Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etiladi, agar tegishli bajarish yengib bo'lmaydigan kuch holatlari, ya'ni ushbu sharoitlarda favqulodda va oldini olib bo'lmaydigan holatlar, tabiiy sharoitlar tufayli, O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining qarorlari asosida majburiyatlarni bajarish kechiktirilganligi (moratoriy) sababli, yoki tegishli munosabatlarni tartibga soluvchi qonun yoxud boshqa hujjatning amal qilishi to'xtatilganligi oqibatida imkonsiz bo'lsa.

5.4. Ishonchli boshqaruvchi yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi, agar bu zararlar yengib bo'lmas kuch oqibatida yoxud g'ayriqonuniy harakatlar, e'tiborsizlik yoki Shartnoma shartlarining buzilishi natijasida yuz berganligini isbotlay olmasa.

6. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

6.1. Tomonlar Shartnoma tuzishda, Shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, Shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlar sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

6.2. Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va boshqa korrupsiyaga qarshi, poraxo'rlik, xususan, korrupsiya, tovlamachilik, mansab vakolatini suiste'mol qilish yoki jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari va boshqa amaldagi qonunlar bo'yicha bilimga ega ekanligini bildiradi va kafolatlaydi.

6.3. Tomonlar Shartnomadagi korrupsiyaga qarshi shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralari tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

6.4. Har bir Tomon Shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan Shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, Shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi. Tomonlar, ular tomonidan Shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va Tomonlar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

6.5. Tomonlar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydilar.

7. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Ushbu Shartnomadan, shuningdek u bilan bog'liq holda kelib chiqishi mumkin bo'lgan yoki kelib chiqqan barcha nizolar, kelishmovchiliklar, talablar yoki da'volar, shu jumladan uning tuzilishi, o'zgartirilishi, bajarilishi, buzilishi, bekor qilinishi, tugatilishi, haqiqiy emasligi yoki tuzilmaganligi (to'liq va/yoki qisman) masalalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida (yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'yicha) yoki Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudida (jismoniy shaxslar bo'yicha) hal etiladi.

7.2. Ishonchli boshqaruvchi o'zining yuridik yoki pochta manzili, bank rekvizitlari va takshkilot nomini o'zgartirgan taqdirda, u Bankning rasmiy veb-saytida tegishli e'lonni joylashtirish, ommaviy axborot vositalari orqali va/yoki Bank tanlagan boshqa usullar bilan Boshqaruv muassisini xabardor qiladi.

7.3. Ushbu Shartnomada ko'zda tutilmagan barcha holatlarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

7.4. Ushbu hujjat bilan Mijoz Ishonchli boshqarish shartnomasini tuzish paytida mazkur Shartnoma qoidalari, Ishonchli boshqarish shartlari va Bank tariflari bilan tanishganligini hamda ularga roziligini tasdiqlaydi.

8. ISHONCHLI BOSHQARUVCHINING REKVIZITLARI

"Open bank" aksiyadorlik jamiyati

Manzil (joylashgan joy): O'zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent shahri, Shahrizabz ko'chasi, 2-uy.

Ma'lumot olish uchun telefonlar (Bankning Aloqa markazi):

1377, (+998 78) 777-13-77

Rasmiy korporativ veb-sayt: www.openbank.uz

E-mail: info@openbank.uz

**Ishonchli boshqarish hisobvarag'ini ochish uchun
A R I Z A**

Sizdan _____

(Jismoniy yoki yuridik shaxs nomi)

nomiga Ishonchli boshqarish hisobvarag'ini ochishingizni so'rayman.

Hisobvaraqlar valyutasi: so'm (milliy valyuta) AQSh dollari

yevro Rossiya rubli

Hisobvaraqlar muddati: 3 oy 6 oy

9 oy 12 oy

Ishonchli boshqarish hisobvarag'iga quyidagi miqdorda pul mablag'larini o'tkazishingizni so'rayman:

(Summa va valyuta nomi)

Ishonchli boshqarish jamg'armasi: Biznes uchun muddatli to'lov

Ipoteka uchun muddatli to'lov

Qo'shimcha badallar Ha Yo'q

Qisman yechib olish Ha Yo'q

Daromad taqsimoti:
- Boshqaruv muassisi (Mijoz) ulushi –
- Ishonchli boshqaruvchi (Bank) ulushi –

Ushbu hujjat orqali Yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini ishonchli boshqarish bo'yicha Ommaviy oferta, shuningdek, Ishonchli boshqarish shartlari bilan tanishganimni va ularga roziligimni tasdiqlayman.

Rahbar _____
(imzo) (F.I.Sh.)

Bosh buxgalter _____
(imzo) (F.I.Sh.)

Sana: _____